

SURXON DAVLAT QO'RIQXONASI HUDUDIDA TARQALGAN YUKSAK O'SIMLIKLAR QOPLAMI

Abduqayumov Sanjar Abdurashidovich,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistri

Annotatsiya: ushbu maqolada Surxon davlat qo'riqxonasi hududida tarqalgan yuksak o'simliklar qoplami, ularning sistematik guruhlar nisbati, shuningdek, yetakchi oilalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Surxon qo'riqxonasi, yuksak o'simliklar, *Asteraceae*, Ko'hitang tizmasi, *Fabaceae*, polimorf turlar.

Abstrakt: This article provides information about the cover of higher plants distributed in the territory of the Surkhan State Nature Reserve, their ratio of systematic groups, as well as the leading families.

Key words: Surkhan Nature Reserve, higher plants, *Asteraceae*, Kohitang Range, *Fabaceae*, polymorphic species.

Аннотация: В данной статье приведены сведения о покрытии высших растений, распространённых на территории Сурхонского государственного заповедника, об их соотношении систематических групп, а также о ведущих семействах.

Ключевые слова: Сурхонский заповедник, высшие растения, Астровые (*Asteraceae*), хребет Кухитанг, Бобовые (*Fabaceae*), полиморфные виды.

O'simliklar dunyosi yer yuzidagi hayotning asosini tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlardan hisoblanib, bugungi kunda 500000 dan ortiq yuksak o'simlik turlari borligi fanga ma'lum. Bular orqasida 50 % dan ortiq qismini gulli o'simliklar bo'limi vakillari tashkil etadi. Keltirilgan ma'lumotlar esa ushbu oila vakillarini o'rganishning ahamiyati qay darajada yuqori ekanligidan darak beradi.

Turli yillar mobaynida bir qancha olimlar tomonidan Ko'hitang tog' tizmasi hududi o'simliklar qoplami o'rganilgan. Jumladan, 1923 yilda Ko'hitang tizmasining sharqiy yonbag'irliklarida M.G. Popov, B.A. Fedchenko boshchiligidagi bir guruh

botaniklar hamda 1928 yilda Ye.G. Bobrov tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. 1931 yilda A.V. Yarmolenko ham bu hududda keng izlanishlar olib borgan hamda shu bilan birga gerbariy materiallari to'plagan.

Ko'hitang tizmasi o'simliklar qoplaminig tik mintaqalar bo'ylab taqsimlanishiga bag'ishlangan yirik ilmiy maqola 1987 yilda R.V. Kamelin va F.O. Xasanovlar tomonidan chop etilgan. Shuningdek, F.O. Xasanov bu hududdan topilgan floristik yangiliklar muallifi sifatida ham fanga o'z hissasini qo'shgan. 1988 yilda I.I. Malsev bilan hammualliflikda Ko'hitang tizmasining shimoli-sharqiy qismi, ya'ni Bog'lidara bo'limidan *Allium* turkumiga oid (*Allium ecornutum* F.O. Khass. et I.I. Malzev) va 1991 yilda Kampirtepa bo'limi Machayli soyidan *Silene* turkumiga manzaralisub (*Silene nataliae* F.O. Khass. et I.I. Malzev) yangi turlarni topishgan hamda bu turlar bo'yicha ma'lumotlar berib o'tishgan.

Shuningdek, oxirgi yillarda Surxon qo'riqxonasi va Surxon-Sherobod vohasi o'simliklari haqida K. Abidov, A. Akromxo'jaev, E.S. An, K.S. Botmanzarali, O.P. Bogdanov, V.P. Lim, E.S. Ann, A.N. Ro'ziev, N.X. Xolmurodov, R.A. Qulmatov tomonidan ham qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish bir qator mulohazalarni keltirib chiqaradi. Avvalo, ularning barchasi turli maqsadlar sari yo'naltirilgan. Shuningdek, ularda Ko'hitang tizmasining ma'lum bir qismi aks ettirilgan. Olingan natijalar esa mavjud umumiy qonuniyatlar asosida talqin etilgan. Ulardan Ko'hitang tizmasida joylashgan Surxon davlat qo'riqxonasining florasida haqida yaxlit ma'lumot olib bo'lmaydi.

Shunday qilib, yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtgacha Ko'hitang tizmasining sharqiy qismida joylashgan Surxon davlat qo'riqxonasi florasining taksonomik tarkibi to'liq va mukammal o'rganilmagan. Shu bilan birga, qo'riqxonada tashkil etilgandan buyon oxirgi 20 yil vaqt mobaynida uning floristik tarkibini o'rganish bo'yicha yetarli ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Surxondaryo viloyati hududida tarqalgan Asteraceae oilasi vakillarining floristik tarkibining o'rganilishi uning boy va xilma-xil o'simlik resurslarini muntazam

ravishda muhofaza qilish chora tadbirlarini ishlab chiqishga imkon yaratish barobarida kelgusidagi barcha ilmiy tadqiqotlarning zamini bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar olib borilgan yillardagi izlanishlar natijasida Surxon davlat qo‘riqxonasi hududidagi yuksak o‘simliklar 77 oila, 372 turkum va 747 turga mansubligi aniqlandi

1-jadval

Surxon davlat qo‘riqxonasi yuksak o‘simliklar florasining asosiy sistematik guruhlarini nisbati

Bo‘limlar	Soni					
	tur		turkum		oilal	
	a bs.	%	ab s.	%	ab s.	%
Equisetophyta	1	0,13	1	0,3	1	1,3
<i>Polypodiophyta</i>	6	0,8	6	1,7	6	7,8
<i>Pinophyta</i>	4	0,54	2	0,5	2	2,6
<i>Magnoliophyta:</i> <i>Magnoliopsida</i> <i>Liliopsida</i>	36	8,53	36	9,7	68	8,8
	5	0,7	3	0,81	5	0,68
	94	9,52	30	8,2	55	7,4
	1	0,1	2	0,5	13	1,6
	42	9,01	61	16,3	13	1,6
Jami:	7	1	37	10	77	10
	47	100	2	0	77	100

Surxon qo‘riqxonasi florasining Janubi-G‘arbiy Hisor okrugi florasining 40,3 % ni, Ko‘hitang tizmasining 74,7 % ni tashkil etadi. Bu qo‘riqxonasi florasini Janubi-G‘arbiy Hisor okrugining o‘ziga

xos maydonlaridan biri va Ko‘hitang tizmasi umumiy florasiga nisbatan reprezentativ xarakterga ega ekanligini namoyon etadi.

Surxon davlat qo‘riqxonasiidagi yetakchi (polimorf) oilalarning spektri 2 – jadvalda keltirilgan. Turlar tarkibining tahlili bo‘yicha olingan natijalar ularning tarkibiga *Asteraceae*, *Fabaceae*, *Poaceae*, *Brassicaceae*, *Lamiaceae*, *Apiaceae*, *Caryophyllaceae*, *Boraginaceae*, *Ranunculaceae*, *Scrophulariaceae*, *Rosaceae*, *Alliaceae*, *Liliaceae*, *Polygonaceae*, *Rubiaceae* oilalari kirishini ko‘rsatdi. Ushbu ro‘yxatga 14 ta va undan ortiq turlarga ega bo‘lgan oilalar kiritilgan. Yetakchi oilalarda 581 tur jamlangan bo‘lib, qo‘riqxonasi umumiy florasining 77,7 % tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich Ko‘hitang tizmasining florasida 75,1 % ga teng.

2.-jadval

Surxon davlat qo‘riqxonasi florasining yetakchi oilalari

Oilalar	Soni		
	turlar	turkumlar	% hisobida
<i>Asteraceae</i>	95	48	12,7
<i>Fabaceae</i>	72	22	9,6
<i>Poaceae</i>	59	36	7,9
<i>Brassicaceae</i>	46	36	6,2
<i>Lamiaceae</i>	41	20	5,5
<i>Apiaceae</i>	38	21	5,1

.	<i>Caryophyllaceae</i>	37	20	5
.	<i>Boraginaceae</i>	33	17	4,4
.	<i>Ranunculaceae</i>	32	12	4,3
0.	<i>Scrophulariaceae</i>	27	12	3,6
1.	<i>Rosaceae</i>	26	12	3,5
2.	<i>Alliaceae</i>	25	1	3,3
3.	<i>Liliaceae</i>	20	5	2,7
4.	<i>Polygonaceae</i>	16	7	2,1
5.	<i>Rubiaceae</i>	14	5	1,9
Qolgan oilalarda		166	98	22,2
Jami:		747	372	100

Oilaning polimorflik xususiyatini eng ko‘p sondagi turkumlar (48 ta) bilan namoyon bo‘lishi va *Cousinia*–11 ta (1,5 %), *Artemisia*–8 (1,1 %), *Jurinea*–4 (0,5 %), *Lactuca*–4 (0,5 %), *Scorzonera*–4 (0,5 %), *Taraxacum*–4 (0,5 %) kabi turkumlarning turlar tarkibi orqali belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, Surxon davlat qo‘riqxonasining floristik tarkibi birinchi marta keltirilayotgan bo‘lib, uning 77 oila, 372 turkumga mansub 747 turni tashkil qilishi aniqlandi. Flora tarkibida Ko‘hitang tizmasining 22 turdagi endemlari aniqlanib, ulardan 4 turi qo‘riqxonaning endemlari hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Tojiboyev, K. Sh., & Karimov, A. T. (2018). *O‘zbekiston o‘simliklari xilma-xilligi va ularning tabiiy hududlardagi tarqalishi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Rahimov, B. M. (2020). *Surxon davlat qo‘riqxonasi florasining o‘ziga xos xususiyatlari*. “Biologiya va ekologiya” jurnali, №2, 45–52.
3. Abdullayev, N. A., & Matkarimova, D. O. (2019). *O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi yuksak o‘simliklar turlari va ularning ekologik ahamiyati*. Termiz davlat universiteti ilmiy axboroti, №1, 37–42.
4. Flora of Uzbekistan (1952–1982). Vol. I–X. Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR.
5. НИКИТИН, В. В. (1983). *Определитель высших растений Средней Азии*. Ленинград: Наука.
6. Хасанова, Г. Р. (2015). *Растительный покров Сурхонского заповедника и его систематическая структура*. Вестник биологических наук, №4, 67–73.
7. Takhtajan, A. (2009). *Flowering Plants*. Springer Science & Business Media.
8. The Plant List (2013). *A working list of all plant species*. URL: <http://www.theplantlist.org>
9. Gadzhiev, A. N. (2016). *Vegetation of the Mountain Regions of Uzbekistan*. Tashkent: Fan va Texnologiya.
10. Rahmatov, I. A., & Ergasheva, M. S. (2021). *Ko‘hitang tizmasining floristik boyligi va dorivor turlari*. “Tabiatni muhofaza qilish” ilmiy jurnali, №3, 58–64.